

## MUSTAQILLIK DAVRI QISSACHILIGIDA IJTIMOIIY VA INSONIY ILLATLAR IFODASI (ERKIN A'ZAMNING QISSALARI ASOSIDA)

Rahmatullayeva Farangiz

Madina Murodova

*JDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada mustaqillik davrida yuzaga kelgan evrilishlar tufayli badiiy adabiyotimizda ham o'ziga xos jihatlar yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin. Hamma davrda bo'lgani singari bu davrning ham o'ziga xos xususiyatlarini badiiy adabiyotimizga ta'sirini bilib olishimiz mumkin*

**Kalit so'zlar:** *Istiqlol davri, adabiyoti, muhit ta'siri, qissachilik*

Har bir davrda bo'lgani kabi istiqloq davrining ham evrilishlari badiiy adabiyotga ham o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda yaratilgan badiiy asarlarning qahramonlari ham o'zgacha insonlar bo'lib bordi. Istiqloq davri va muhiti insonlarga ham turlicha ta'sir qildi. Bundan badiiy adabiyotimizga turli xil illatlarni o'zida mujassamlashtirgan badiiy qahramonlarning siymolari gavdalandi. Sovet adabiyotida ko'rinarli asarlar yaratilganligi adabiyot sahnasi ko'p ko'rdi. Endigi istiqloq davrida ham bularning roli va o'rni davr talabi bilan o'zgarib bordi.

Mustaqillik davri ijodkor adibi Erkin A'zamning bir qator qissalarida ham davr qahramonlarining illatlari ko'zga tashlanib qoladi. Uning "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasidagi bosh qahramon Pakana ham davr odami, shu bilan birga ijodkor inson. Adib qahramonini istiqloq davriga xos xususiyatlardan biri uni bironta ism bilan atamay, uni oddiygina pakana nomi bilan atab qo'ya qoladi. Shu sababli bu o'quvchi yodida ham pakana nomi ostida muhrlanadi.

Qissa qahramoni Pakana o'z tashqi ko'rinishidan hech qachon ko'ngli hech qachon to'lmaydi. Uning illatlaridan biri Alloh unga ato etgan iste'dodini befoyda narsalarga sarf etadi. Pakana oshiq ko'ngli qayerda chiroyli qizni ko'rsa, shunga suv ochib ketaverardi. Bu qahramonning iste'dodini orqaga tortilishiga, balki uning rivojlanmay qolib ketaverishiga sabab bo'ladi.

Sharq allomalarining fikriga ko'ra inson amoli bilan go'zaldir. Yaxshi amallarning natijasi esa ezgulikdir. Kishi ezgulik tufayli baxt-saodatga erishadi. Odam deb atalmish Alloh tomonidan unga ato etilgan barcha yaratilqlariga, Uning tomonidan berilgan barcha hislatlarga shukr qilib yashash kerak bo'ladi. Qur'oni Karimning Xujurot surasining 13-oyatida "Biz sizlarni biringizni erkak va bir ayoldan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan

tanishlinglar uchun sizlarni xalqlar va qabila-elatlar qilib qo'ydik. Albatta, sizlarni Alloh nazdidagi hurmatlirog'ingiz - taqvodorlaringizdir", - deyiladi. Demak, barcha inson til, millat, elat va boshqa jihatlardan farqlanmas ekan. Erkin A'zamovning "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasida o'z nomi bilan ma'lum va mashxur qahramonimiz o'zining holatiga chiday olmay turli xil vaziyatlarga tushib qoladi. Uning pakanaligi o'z-o'zidan bilinib qolmaydi, balki yordamchi obrazlar vositasida ochilib boradi. U o'zini hech qachon bu kamchigiga ko'nika olmaydi va olmasdi ham.

Ma'lumki, aql islom dini nazarida eng sharafliisidir. Alisher Navoiy aytganidek, "inson boshqa jonjotlardan aqli va tili bilan farq qilur". Aql ham diniy va aqliy ilmlar asosida yuzaga keladi. Bir-birisiz yuzaga kelgan aql kemtikdir. Qissamiz qahramoni Pakana ham shunday bir kemtik aqlga ega. Unga Ollloh tomonidan berilgan iste'dod bor edi. Faqat bu isti'dodni to'g'ri yo'lda emas, vaqtinchalik orzu-havaslariga ishlatadi. Uni ham bo'lsa, chala o'zlashtirgan. Bu ham kemtiklikka yanada kemtiklik qo'shgan edi.

Biz bilamizki, Pakana ko'ngil kishisi. U qaysi davrada yoki boshqa joyda bironta go'zal qizni ko'rsa, yoqtirib qolaveradi. Uning ayoli bo'lsa-da, har doim ko'zi boshqalarni izlardi. O'z oilasiga, o'z ayoliga ko'ngli yo'q edi. Ammo yolg'ondakam bo'lsa-da, nikohiga olgan Arofatni o'z manfaatini o'ylab qancha qiynab qo'yganligini bilmaydi ham. U chunki diniy aqldan bebahra yaratiq edi.

Uning iste'dodi gullab-yashnagan davrlar ham bo'ldi. Boringki, uning pakanaligini hech kim biron marta bo'lsin yuziga solmas edi. Qissa qahramoni har doim o'zidan novchalar bilan do'st tutinar, o'zi kabi kaltalarni esa jini suymas edi. Ular bilan turganda turli xil uslublarni qo'llab chiqadi. Baribir bu narsalardan uning ko'ngli to'lmas edi. Pakana dunyoga nomi ketgan ne-ne ulug'larning hammasi katta shuhratga ershgani haqida o'ylaydiyu, ammo ularning o'z aql-zakovatlarini ishga solib shu darajaga yetganiga aqli yetmaydi. Ularni o'zicha sanab ham chiqadi:" Ana - Napoliyonni olaylik, Neronni olaylik, Pushkin, Gandi, Lenin, Stalin... eh -eh buyog'i o'zimizning Obidjonga qadar!"[1;3]

Asar oxirida pakana puch xayollar ketidan yugurib umr o'tkazgani, yonidagi baxtning vaqtida qadriga yetmaganidan afsuslanadi. Tabibning yoniga borib bo'yini o'stirgandan so'ng oldingi pakanaligini sog'inadi ham. Qissadagi qiziq voqealar ortida achchiq haqiqatlar yashiringan edi.

Adibning "Shoirning to'yi" qissasida ham qahramonlarning birortasining nomi tilga olinmaydi. Unda ham istiqlol davri kelib oqlangan shoirning to'yi o'tkaziladi. Sovet qama-qama davrida qoralangan iste'dodlar, hattoki uni zamona zayli bilan qoralagan insonlar ham bugunga kelib uni olqishlab yaxshilashga harakat qiladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, davr va makon hamma vaqt odamlarni o‘z hukmiga bo‘ysundirgan. Qissa qahramoni “Otash qalb” zamona tufayli o‘z erkini kuylab o‘tgan shoir bo‘lsa-da, uni ovoz chiqarishga qo‘ymaydi. Erkin gullab- yashnashiga imkoniyat bo‘lmaydi. Chunki bunda mafkura asosiy o‘rinni egallaydi. Vaqtida uni davr mafkurasi tufayli shoirni qoralagan shaxslarning hammasi uni xotirlab oqlash jarayonida ishtirok etadi. Davr ijtimoiy illatlarini o‘zida aks ettirgan ushbu qissada davr hukmiga bo‘ysunish, erksizlik, adolatsizlik, yuzakilik va boshqalar uchraydi.

Oqsoqol obrazi orqali o‘z vijdonini qiynab bo‘lsa ham, mafkura tufayli unga bo‘ysunib yashagan obraz hisoblanadi. U hattoki oqlanayotgan “otash qalb” ga ichidan havas ham qiladi. Shoirning o‘rnida bo‘lib qolgisi keladi. Ammo buncha kech edi. Bundan tashqari shoir otash qalb haqida aytilayotgan fikrlardan bilinib turibdiki, uni bilib-bilmay talqin etib, har xil fikrlarni aytishadi. “Oqsoqol shoir Otash qalbnini hamma unitib yuborganda ham unitmagan edi. Uning hamma asarlarini yoddan bilar edi”[2;10] Bundan ko‘rinib turibdiki, Oqsoqol shoirni hamma vaqt kuzatib yurgan, uning har bir ijodining haqiqatga yaqinligini bilsa-da, davr mafkurasi orqali o‘z vijdoniga qarshi borib Otashqalbning qoralanishida ishtirok etib qoladi.

Asardagi Mafkuraxonim obrazi orqali esa har bir davrning mafkurasi bo‘lib, u zamoniga bo‘ysunadi. Har bir davrda zamonga moslashuvchan mafkura avval shoir Otashqalbni yomonlagan bo‘lsa, endi ko‘klarga ko‘tarib xizmat qilishga majbur edi. Chunki mafkura o‘zgarib bormoqda edi. Asardagi yana bir illat-ikkiyuzlamachilik Mashuqaxonim obrazi orqali ochib beriladi. Mashuqaxonim birgina Otashqalbgaga vafoli yor emas edi. Adib bu obrazga bekorga “mashuqa” nomini tanlamagan. Chunki mashuqalik zamirida avval g‘azallarimizda bo‘lgani kabi bevafoqlik xos xususiyat hisoblanadi. Mashuqaxonimdan avvalgi zamonda so‘ralganda “Voy, kim edi u” [3;12] deya tonishdan ham qaytmas edi.

Bu qissada har bitta obraz orqali ma‘lum illatlarni ochib tashlash mumkin. Albatta, bu kabi illatlarni yana ko‘p sanab o‘tishimiz mumkin. Adibning maqsadi qaysidir illatni oqlash yoki qoralash emas. Davr o‘zgarishi bilan odamlarga qanday ta‘sir qilganini ko‘rsatishdir, balki. Bu borada xulosani o‘quvchining o‘ziga yuklab qo‘yadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT:

- 1.Yoshlar partali rasmiy sayti
- 2.E.A’zamovning Pakananing oshiq ko‘ngli qissasi
3. “Istiqlol davri adabiyoti” H.Karimov
- 4.E.A’zamovning “Shoirning to‘yi” qissasi.